
NAZAR ESHONQULNING “MAYMUN YETAKLAGAN ODAM” HIKOYASIDA MAYMUN OBRAZINING BADIYATI

*Ergasheva Sarvara Furqat qizi,
ToshDO‘TAU OTAT 1-kurs magistranti
sarvarafurqatqizi@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining mashhur yozuvchilaridan biri Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasidagi maymun obrazi gender nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Ushbu obrazning badiiy-g‘oyaviy vazifalari muayyan millat, madaniyat, diniy-e‘tiqodlarga ko‘ra tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy obraz, maymun, gender xususiyat, madaniyat, psixologiya

“Obraz” termini rus tilidan olingan bo‘lib, o‘zbekcha tarjimada “aks” degan ma‘noni anglatadi¹. Badiiy obraz borliqning aynan aksi emas. Muallif obrazni badiylashtiradi, unga bir qancha o‘zgarishlar kiritadi. Adabiyotshunos olim Erkin Xudoyberdiyev obrazning asosiy ikki xususiyati sifatida quyidagilarni sanab o‘tadi: “Badiiy obrazga xos birinchi xususiyat, yuqorida aytilganidek, uning jonli, aniqligi, o‘ziga xos belgilarga boyligi bo‘lib, bu xususiyat san‘at va adabiyotning hissiy ta‘siri quvvatini belgilaydi. Obrazning ikkinchi o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o‘zida ayni holda aniq, takrorlanmas, shu bilan birga, umumiy, tipik belgilarni mujassamlashtiradi”².

Obrazda obyektiv mavjud va muhim jihatlar bilan birga bo‘lishi mumkin bo‘lgan, mo‘ljaldagi, xohishdagi, ya‘ni turmushning emotsional-irodaviy tomonlariga munosabat, uning ko‘rinmas, ichki imkoniyatlari bilan bog‘liq xususiyatlar ham muhrlangan bo‘ladi³. Obrazga hayotda bo‘lgan shaxs sifatida, asardagi voqealarga esa aynan bo‘lib o‘tgan hodisa sifatida qaramaslik kerak.

Faqatgina insonlar emas, balki hayvonlar ham badiiy obraz sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, “Ityurak” romanida it obrazi, “Usta va Margarita” asarida mushuk, “Hayotga muhabbat” hikoyasida bo‘ri obrazi qo‘llangan. Shuningdek, eng keng tarqalgan obrazlardan biri maymun sanaladi. U aksar mamlakatlarda yaxshi kayfiyat va quvonch ramzi hisoblanadi. Masalan, Xitoyda ushbu hayvon omadni anglatadi. Shu bilan bir qatorda, maymun haqida xitoylik bashoratchilar agarda uyning shimoliy, janubi-sharqiy yoki janubiy tomonlariga

¹ Quronov D. “Adabiyotshunoslikka kirish”. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004 - 63-bet.

² Худойбердиев, Эркин Адабиётшуносликка кириш: Олий Укув юртлари талабалари учун дарслик / Эркин Худойбердиев. — Т.: «Шарк», 2008.

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Obraz>

maymun haykali qo'yilsa, boylik, shon-shuhrat keltirishini bashorat qiladilar⁴. Shuning uchun ham ko'plab xitoyliklar uylarida oltin maymuncha haykalini saqlashadi. Ular ana shu maymun haykalining ularga boylik, shon-shuhrat, kuch-quvvat, energiya olib kelishiga ishonadilar. Yaponiyada esa maymun baxtli va o'yinqaroq jonivor sanaladi. Hinduizmda esa Hanuman xudosini va kuch-qudratni anglatadi⁵. Hanuman xudosi "Ramayana", "Mahabharata" kabi mashhur eposlarda ham ishtirok etgan. Hanuman (/ˈhʌnʊˌmɑːn/; sanskrit: हनुमन्, IAST: Hanumān),[4], shuningdek, Maruti, Bajrangabali va Anjaneya[5] deb ataladi, [5] hindu xudosi va vanadning ilohiy hamrohidir. Hanuman hind eposi "Ramayana"ning markaziy qahramonlaridan biridir. U Ramaning fidoyisidir. Hanuman shamol xudosi va uning ruhiy o'g'li deb hisoblanadi⁶. Hinduizmga e'tiqod qiluvchi kishilar Hanumanni o'z xudolari sifatida bilishadi va unga sig'inishadi. Biroq xristian dinida maymun gunoh amal va vasvasani bildiradi. Hindularda maymun yolg'onchilik va ayyorlik bog'liq ma'noni anglatadi⁷.

1989-yil 6-yanvar kuni "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida Nazar Eshonqulning yangi hikoyasi nashr etildi, bu adibning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi edi⁸. Ushbu hikoya yozuvchiga shuhrat olib keldi. Bu asar adabiyotshunoslar, tanqidchilar, keng jamoatchilik vakillari o'rtasida ko'plab muhokamalarga sabab bo'ldi. Bugungi kunda ham hikoya haqida, undagi obrazlar borasida fikrlar bildirilmoqda. Xususan, Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi U.S.Toirova o'z maqolasida: "Maymun cholni o'rmonga olib kirgani o'quvchini biroz o'ylantiradi. Xo'sh, cholning umri tugayaptimi yoki uning mavqeyi jamiyatga to'g'ri kelmaydimi? Biz qariyaning bo'ynida zanjir yo'qligini hisobga olamiz. Bu uning davri tugaganidan dalolatdir. Yigitning maymunni o'rmonga yetaklab borishi uning jamiyatni maymundek boshqara olish qobiliyatining ramzi bo'lsa, keksa odamning ko'zlarida g'am-g'ussa bilan maymun ortidan ergashayotgani, hayotga intilish belgisi yo'q. Jamiyat va voqelikka bo'ysunish belgisi,"— deb yozgan⁹.

2023-yilning 23–24 noyabr kunlari Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda yigirma bir nafar ko'ngilli 11-sinf o'quvchilari ishtirokida tajriba-sinov o'tkazildi. Ulardan 9 tasi o'g'il bola, 12 tasi esa qiz bola

⁴ <https://www.magicbricks.com/blog/feng-shui-animals/124084.html>

⁵ <https://a-z-animals.com/blog/monkey-spirit-animal-symbolism-meaning/#:~:text=In%20many%20cultures%2C%20monkeys%20are,symbol%20of%20strength%20and%20courage>

⁶ <https://en.wikipedia.org/wiki/Hanuman>

⁷ <https://a-z-animals.com/blog/monkey-spirit-animal-symbolism-meaning/#:~:text=In%20many%20cultures%2C%20monkeys%20are,symbol%20of%20strength%20and%20courage>

⁸ <https://kitobman.uz/books/maymun-yetaklagan-odam-978-9943-22-383-7/>

⁹ Toirova Umida Sobirovna The interpretation of zoosemy through the symbol of Monkey in the stories of N.Eshonqul "Maymun yetaklagan odam (The Man Leading the Monkey) and W.W.Jacob's "The Monkey's Paw", 2021.


edi. 23-noyabrda o'quvchilar hikoya bilan tanishdilar. 24-noyabrda esa o'quvchilarga ikkita muammoli savol berildi, ular yozma tarzda javob berdilar. (O'quvchi oldiga muammo tarzida qo'yilgan, uni asar matni ustida o'ylashga, izlanishga undaydigan, uning zamiridagi ma'nolarni tushunish uchun hayotiy tajribalarga qayta-qayta murojaat qiladigan savol yoki topshiriqli muammoli masala yoki muammoli savol-topshiriq deyish mumkin)¹⁰.

Quyidagi savollar berildi:

1. Hikoyadagi maymun nimaning ramzi edi?
2. Nega rassom boshqa hayvonni emas, maymunni tanlagan?

1-savolga qizlardan: 4 tasi jamiyat, 3 tasi xalq, 2 tasi ishtiyoq, 2 tasi orzu-havas, 1 ta ishtirokchi esa nafs deb yozishgan. Tajriba ishtirokchilaridan biri jamiyat javobni berishiga sabab sifatida rassom cholning ilk rasmda yosh yigitning maymunni yetaklab ketishini tasvirlagani va uning rassomga o'xshab ketishi orqali ifodalagan.


Asardagi maymunni orzu-maqсад ramzi deb fikr bildirgan ishtirokchilar o'z qarashlarini isbotlash uchun odamzodning yoshlikda kuch-g'ayratga to'lishi, omad ortidan quvishi, yillar o'tgandan keyin esa rassomda yashashdan maqsad yo'qligi, e'tiqod yo'lida sobit emasligi, farzand tarbiyasida adashishining jazosini tortayotganini yozishgan. Ya'ni rassom cholni hayotda olg'a qadam bosishga, harakat qilishga undaydigan kuch yo'q ekanligini nazarda tutishgan. Nafs javobini yozgan ishtirokchi fikrini dalillash uchun inson yoshligida bilib-bilmay nafsga berilishi, ko'plab gunohlarga qo'l urishini, umri o'tgandan keyin esa tavba qilishini yozishgan.



Birinchi savolga o'g'il bolalardan: to'rttasi maymunni jamiyat ramzi, yana uchtasi savodsiz xalq, bittasi Sovet Ittifoqi davridagi mustamlaka millatlar, bitta retsiyent esa o'z fikriga ega bo'lmagan insonlar ramzi sifatida olgan. Maymunning

¹⁰ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Barkamol fayz media, 2018. 132-b.

savodsiz xalq ramzi ekanligini yozgan o'quvchilardan biri o'z fikrini isbotlash uchun Sovet Ittifoqi davrida odamlarning bilib-bilmay, ko'r-ko'rona hukumat tomonidan berilgan buyruqlarga bo'ysunganlari, hattoki, o'z e'tiqodidan kechganini misol qilib keltirgan:



Ikkinchi savolga o'n nafar qiz Darwin ta'limotiga asoslanib, Nazar Eshonqul hikoyada maymun obrazini qo'llaganini yozishgan. Ushbu ta'limotgan ko'ra, inson maymundan tarqalgan. Evolyutsiya tufayli nutq, ong rivojlanishi orqali inson maymundan farqlangan. Bitta ishtirokchi maymunning tashqi ko'rinishi insonga biroz o'xshab ketgani uchun, yana bir retsiyent yozuvchi hayotida maymun bilan bog'liq qandaydir voqea sodir bo'lgani uchun ushbu obrazni qo'llaganini yozgan. 80% retsiyentlar maymunda miya rivojlangani, ammo uning ongi inson kabi rivojlanmaganini ta'kidlagan. Bitta ishtirokchi maymunda ham odamlarda bo'lgani kabi qon guruhlari bo'lishini yozgan. Ushbu maktab tabiiy fanlarga, ya'ni kimyo va biologiyaga ixtisoslashtirilgan. Shuning uchun ham o'quvchilar javoblarini asoslash uchun Darwin ta'limotini keltirishgan.

Ushbu savolga o'g'il bolalarning barchasi Darwin ta'limotini sabab sifatida ko'rsatgan. Shuningdek, 70% tajriba qatnashchilari maymunni oson qo'lga o'rgatish mumkinligini ham alohida ta'kidlab o'tishgan.

Birinchi chizilgan rasm, odam maymunni yetaklab ketayotganligi tasvirlangan rasmni yozuvchi quyidagicha ta'riflaydi: "...Suratda quyruq o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali yigit tasvirlangan edi. Yigitning ko'zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo'yniga solingan kishan tarang tortilgan edi. Rasmda chol nima demoqchi bo'lganini tushunmasam-da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan hayratga tushdim; qizg'ish va javdari bo'yoq

yigitning ko‘nglidagi hissiyotni to‘la aks ettira olgan edi...”¹¹. Qizil rang g‘alaba, olov, iliqlik, xursandlik, shodlik, qon ramzidir.¹² Rassom ushbu rasmni chizgan vaqtida komsomol edi, u hukumat chiqargan qarorlar, farmonlar xalqqa foyda berishiga, savodsiz elni madaniyatli qilish uchun bolsheviklar islohotlar o‘tkazishiga ishonardi. Ya’ni rasmda tasvirlangan maymun orqali yozuvchi jamiyatni ko‘rsatib berishga intilgan. Rassom yoshligida xalqning qoloqligini, kaltabin ekanligini ko‘rsatish uchun ham maymunni tasvirlagan. Zero, maymunda miya bor, ammo ong rivojlanmagan. Musavvir go‘yoki xalqni ongsiz deb hisoblagan, Sovet ittifoqidan odamlarni “to‘g‘ri yo‘l”ga boshlashini, “savodsiz, sodda” xalqni buyuk insonlarga aylantirishini, elni bundan keyin farovon hayot kechirishini kutgan.

Oxirgi rasm haqida roviy shunday degan: “...Ko‘zimga nihoyatda tiniq ranglar lop etib urildi — bu surat qirq yil ichida chizilgan mahzun suratlariga sira o‘xshamas edi. Men rasmdagi manzaradan bir nafas tong qoldim; suratda xuddi birinchi rasmdagi o‘rmon aks ettirilgan edi. Faqat bu suratda maymun qarab turgan umidsiz ko‘zlariga g‘am cho‘kkan munkaygan bir cholni o‘rmon sari yetaklab ketardi”¹³.

Hikoya boshida odam maymunni yetaklab ketayotgan edi. Shuning uchun ham “Maymun yetaklagan odam” nomi berilgan edi. Marhum rassomning so‘nggi rasmda esa maymun odamni yetaklab ketayotgan edi. Shunga “Odam yetaklagan maymun” bo‘ldi. Oxir-oqibatda, rassom chol o‘zi kaltabin deb hisoblagan odamlarning bir kosa ovqati bilan kun ko‘rardi. Qo‘ni-qo‘shnilari unga g‘amxo‘rlik qilishdan to‘xtamadi. Shuningdek, dunyoga mashhur olim Ch.Darvin insonning maymundan tarqaganini isbotlashga uringan. XVIII asrda ham ba’zi olimlar, maymunlarning ba’zi bir maxsus nasllarni yaratganiga ishonishadi. Malaylarda “orangutan” so‘zi “o‘rmon odam” degan ma’noni anglatadi. Mahalliy odamlar u gapirishga qodirligiga ishonishadi, lekin odamlar uni ishlashga majbur qilishidan qo‘rqib, u ovozsiz gapiradi¹⁴. Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi modernistik hikoyalar sirasiga kiradi. Modernizm (fr. modern-eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri XX asr boshlarida ommalashgan termin, san’at va

¹¹ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-maymun-yetaklagan-odam-hikoya>

¹² Rangshunoslik: Bakalavriatning 5240900 kasbiy (5111200 — Amaliy san’at) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik/ S.S.Bulatov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika un-ti. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. — 160 b. 19-bet

¹³ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-maymun-yetaklagan-odam-hikoya>

¹⁴ <https://arsochi.ru/uz/psychology-and-genetics/what-did-darwin-say-about-the-origin-of-man-how-and-when-people-happened.html>

adabiyotda dekadensdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi¹⁵.

Modern asarlarda yozuvchi borliqni, insonni qanday tasavvur etsa, uni qanday his etsa, qog‘ozga shunday tushiradi. Hikoyadagi maymun obrazi turlicha tahlil qilinadi. Zero, modernistik asarlarda obrazlar talqinida turlichalik ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, yakunlovchi xulosa kitobxon ixtiyoriga topshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Barkamol fayz media, 2018. — 352 b.
2. Rangshunoslik: Bakalavriatning 5240900 kasbiy (5111200 — Amaliy san‘at) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik/ S.S.Bulatov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika un-ti. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. — 160 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish umumiy. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004. — 224 b.
4. Toirova U.S., The interpretation of zoosemy through the symbol of Monkey in the stories of N.Eshonqul ’’Maymunyetaklaganodam (The Man Leading the Monkey) and W.W.Jacob’s ’’The Monkey’s Paw’’, 2021.
5. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 246 b.
6. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш: Олий Укув юртлари талабалари учун дарслик / Эркин Худойбердиев. — Т.: «Шарк», 2008. - 368 б.
7. <https://a-z-animals.com/blog/monkey-spirit-animal-symbolism-meaning/#:~:text=In%20many%20cultures%2C%20monkeys%20are,symbol%20of%20strength%20and%20courage>
8. <https://kitobman.uz/books/maymun-yetaklagan-odam-978-9943-22-383-7/>
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Obraz>
10. <https://www.magicbricks.com/blog/feng-shui-animals/124084.html>
11. <https://a-z-animals.com/blog/monkey-spirit-animal-symbolism-meaning/#:~:text=In%20many%20cultures%2C%20monkeys%20are,symbol%20of%20strength%20and%20courage>
12. <https://en.wikipedia.org/wiki/Hanuman>
13. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-maymun-yetaklagan-odam-hikoya>
14. <https://arsochi.ru/uz/psychology-and-genetics/what-did-darwin-say-about-the-origin-of-man-how-and-when-people-happened.html>

¹⁵ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent:”Akademnashr”. 2013. 176-bet.
www.michascience.com